“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=357

2026-yil
3-son
mart
ISSN 3093-8546



Raqamli texnologiyalar sharoitida narkotik moddalar noqonuniy aylanmasining yangi shakllari

Abduqodir Abdibositov,
Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti
Yuridik fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: abduqodirabdibositov@gmail.com

Аннотация. Maqolada raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida narkotik moddalar noqonuniy aylanmasining shakllanishi, internet, ijtimoiy tarmoqlar va darknet orqali tarqatilish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli muhitda mazkur jinoyat turining tashkiliy xususiyatlari, ishtirokchilar tizimi hamda bunday jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda uchraydigan dolzarb muammolar yoritib beriladi.

Калит сўзлар. raqamli texnologiyalar, narkotik moddalar noqonuniy aylanmasi, darknet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn jinoyatchilik, jinoiy sxemalar, raqamli dalillar, jinoyatlarni tergov qilish.

Аннотация. В статье анализируются формирование незаконного оборота наркотических средств в условиях развития цифровых технологий, а также механизмы их распространения через интернет, социальные сети и даркнет. Кроме того, также раскрываютсяраскрываются организационные особенности данного вида преступлений в цифровой среде, система участников преступной деятельности и актуальные проблемы выявления и расследования таких преступлений.

Ключевые слова. цифровые технологии, незаконный оборот наркотических средств, даркнет, социальные сети, онлайн-преступность, преступные схемы, цифровые доказательства, расследование преступлений.

Annotation. The article analyzes the formation of illegal drug trafficking in the context of the development of digital technologies, as well as the mechanisms of their distribution through the Internet, social networks, and the darknet. It also examines the organizational features of this type of crime in the digital environment, the system of participants involved in criminal activities, and the current challenges in detecting and investigating such offenses.

Keywords. digital technologies, illegal drug trafficking, darknet, social networks, online crime, criminal schemes, digital evidence, crime investigation.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet tarmog‘i, ijtimoiy platformalar va elektron aloqa vositalari axborot almashinuvini tezlashtirish bilan birga ayrim noqonuniy faoliyat turlarining ham yangi shakllarda namoyon bo‘lishiga sharoit yaratmoqda. Xususan, narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi ham raqamli muhit ta’sirida transformatsiyaga uchrab, onlayn muloqot vositalari, messenjerlar va anonim tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgan harakatlar mazkur jinoyat turining xususiyatlarini o‘zgartirmoqda. Shu sababli raqamli makonda sodir etilayotgan bunday jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Narkotik moddalar noqonuniy aylanmasi ilgari asosan an’anaviy usullar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uning shakllanishi va rivojlanish mexanizmini tubdan o‘zgartirmoqda. Natijada narkotik moddalar noqonuniy aylanmasi raqamli muhit bilan bog‘liq yangi xususiyatlarni kasb etmoqda.

M.A. Mentyukova va O.S. Pustovalovaning fikricha, internet tarmog‘i va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi narkotik moddalar tarqatish bilan bog‘liq jinoyatlarning ko‘payishiga xizmat qilmoqda, chunki bu texnologiyalar jinoiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi [1]. Mualliflar mazkur jarayonni jinoyatchilikning raqamli muhitga moslashuvi sifatida baholaydilar. Ushbu ilmiy qarashga qo‘shilish mumkin, chunki har qanday ijtimoiy jarayon kabi jinoyatchilik ham mavjud texnologik sharoitlarga moslashadi. Shu nuqtayi nazardan, narkotik moddalar noqonuniy aylanmasi ham raqamli texnologiyalar rivoji bilan birgalikda o‘z shaklini o‘zgartirib, yangi mexanizmlar asosida amalga oshirila boshlagan.

L.S. Kuzinaning ta’kidlashicha, raqamli transformatsiya nafaqat jinoyat sodir etish usullarini, balki jinoyatchilikning ijtimoiy muhit bilan bog‘liq xususiyatlarini ham o‘zgartirmoqda. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, internet va raqamli platformalar jinoiy faoliyatning tashkil etilishiga yangi imkoniyatlar yaratib, jinoyatchilar uchun qulay axborot muhitini shakllantirmoqda [2]. Muallifning mazkur fikri juda muhim hisoblanadi, chunki raqamli texnologiyalar nafaqat aloqa vositasi, balki muayyan ijtimoiy makon sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Fikrimizcha, bu holat narkotik moddalar noqonuniy aylanmasining shakllanishida yangi bosqichni yuzaga keltiradi. Chunki raqamli muhitda jinoiy faoliyat ishtirokchilari bir-biri bilan tezkor aloqa o‘rnatishi, ma’lumot almashishi va o‘z harakatlarini muvofiqlashtirishi ancha osonlashgan.

A.A. Chechenovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, internet orqali amalga oshirilayotgan narkotik moddalar savdosi jinoyatchilikning yangi shakllaridan biri hisoblanadi va bu jarayon raqamli

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

texnologiyalarning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq [3]. Muallif ayniqsa jinoyatchilar tomonidan elektron aloqa vositalari va raqamli platformalardan faol foydalanilayotganini ta’kidlaydi. Bu fikrni tahlil qilar ekanmiz, shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar jinoyatchilarga o‘z faoliyatini geografik jihatdan kengaytirish imkonini beradi. Ilgari narkotik moddalar tarqatilishi muayyan hudud bilan cheklangan bo‘lsa, hozirgi kunda raqamli muhit orqali bunday faoliyat transhududiy xususiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar narkotik moddalar noqonuniy aylanmasining tashkiliy jihatlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot texnologiyalari jinoiy faoliyatni boshqarish, ishtirokchilar o‘rtasida vazifalar taqsimlash va jarayonni muvofiqlashtirishni ancha osonlashtirmoqda. Bu holat esa mazkur jinoyat turining transformatsiyasini ifodalaydi. Fikrimizcha, aynan shu jihat narkotik moddalar noqonuniy aylanmasining raqamli muhitda yangi tizimli shaklga ega bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar jinoiy faoliyatning yashirinligini ham kuchaytirmoqda. Internet tarmog‘idagi anonimlik imkoniyatlari va virtual muloqot shakllari jinoyat ishtirokchilariga o‘z shaxsini yashirish imkonini beradi. Bu holat esa narkotik moddalar noqonuniy aylanmasining an’anaviy shakllardan farq qiluvchi yangi xususiyatlarini shakllantiradi. Bu jarayon jinoyatchilikning texnologik muhitga moslashuvi natijasida yuzaga kelgan tabiiy transformatsiya hisoblanadi.

Internet, ijtimoiy tarmoqlar va darknet platformalari orqali narkotik moddalar tarqatish so‘nggi yillarda jinoyatchilikning eng dinamik va murakkab mexanizmlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli muhitdagi mazkur faoliyat muayyan texnik va tashkiliy elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ular narkotik moddalarni tarqatish jarayonini ancha tizimlashtirilgan va ko‘p bosqichli shaklga keltirmoqda. Bu mexanizmlar asosan internet platformalari orqali aloqa o‘rnatish, axborot almashish, xaridorlarni jalb qilish va tarqatish jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

M.A. Mentyukova va O.S. Pustovalovaning ilmiy qarashlariga ko‘ra, internet tarmog‘i narkotik moddalarni tarqatish uchun jinoyatchilarga qulay kommunikatsiya muhitini yaratib bermoqda. Mualliflar internet orqali amalga oshirilayotgan savdo jarayonida jinoyat ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqa asosan elektron kanallar orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydilar [4]. Bu fikrga ko‘ra, internet platformalari narkotik moddalar tarqatishning muhim infratuzilmasiga aylangan. Ushbu nuqtayi nazarni tahlil qilganda, internet muhiti jinoyatchilar uchun axborot almashish va xaridorlar bilan muloqot qilish imkoniyatini ancha osonlashtirayotgani ko‘rinadi. Natijada narkotik moddalar tarqatish jarayoni an’anaviy to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot shakllaridan raqamli aloqa tizimiga o‘tgan.

L.S. Kuzinaning ta’kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar narkotik moddalar tarqatishda muhim vosita sifatida qo‘llanila boshlagan. Muallifning ilmiy qarashlariga ko‘ra, Telegram,

WhatsApp, Instagram va boshqa raqamli platformalar orqali jinoyatchilar xaridorlar bilan muloqot o‘rnatish, reklama qilish va turli axborotlarni tarqatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar [5]. Ijtimoiy tarmoqlar ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida jinoyatchilarga keng auditoriyaga chiqish imkonini beradi. Shu jihatdan qaraganda, ijtimoiy tarmoqlar narkotik moddalar tarqatish jarayonida xaridorlarni jalb qilish va axborot tarqatishning samarali vositasiga aylanmoqda.

L.S. Kuzina shuningdek, ayrim hollarda jinoyatchilar raqamli kontentdan ham foydalanishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, internet muhitidagi turli media materiallar, memlar, videolar yoki boshqa vizual elementlar orqali narkotik moddalar haqida ma’lumot tarqatilishi mumkin. Bu holat internet muhitining axborot tarqatish imkoniyatlari bilan bog‘liqdir. Demak, raqamli kontent orqali tarqatilayotgan ma’lumotlar narkotik moddalar savdosi bilan bog‘liq axborotlarni keng auditoriyaga yetkazish imkonini berishi mumkin. Bu esa mazkur jinoiy faoliyatning internet muhitidagi ta’sir doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

A.A. Chechenovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, narkotik moddalar savdosi internet orqali amalga oshirilganda asosan kontaktsiz mexanizmlardan foydalaniladi. Muallifning ta’kidlashicha, bu jarayonda ishtirokchilar o‘rtasida shaxsiy muloqot deyarli bo‘lmaydi, aloqa elektron kanallar orqali amalga oshiriladi [6]. Bu holat internet muhitidagi savdo jarayonining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Kontaktsiz muloqot jinoyatchilar uchun xavfni kamaytirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Shu sababli internet orqali amalga oshirilayotgan narkotik moddalar savdosi ancha yashirin va murakkab shaklga ega bo‘lib bormoqda.

A.A. Chechenov shuningdek, internet orqali narkotik moddalar tarqatishda elektron to‘lov vositalaridan keng foydalanilayotganini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, elektron hamyonlar va kriptovalyuta kabi raqamli moliyaviy vositalar jinoyatchilarga moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda qo‘shimcha qulayliklar yaratadi. Bu fikrni tahlil qilganda, raqamli moliyaviy tizimlar jinoiy operatsiyalarning iqtisodiy tomonini ta’minlashda muhim rol o‘ynayotgani ko‘rinadi. Chunki bunday to‘lov tizimlari orqali moliyaviy operatsiyalar masofadan turib amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, darknet platformalari ham narkotik moddalar tarqatish mexanizmlarida muhim o‘rin tutadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, darknet segmentida maxsus onlayn bozorlar tashkil qilinib, ular orqali narkotik moddalar savdosi amalga oshirilishi mumkin. Bu platformalar odatda maxsus dasturiy ta’minot orqali kiriladigan va an’anaviy qidiruv tizimlari tomonidan indeks qilinmaydigan internet segmenti hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, darknet platformalari narkotik moddalar savdosi uchun alohida raqamli infratuzilma vazifasini bajaradi.

Raqamli muhitda narkotik moddalar savdosini tashkil etish, odatda, bir shaxsning alohida harakatiga emas, balki vazifalar qat’iy taqsimlangan ishtirokchilar tizimiga tayanadi. Bunda har bir

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ishtirokchi o‘zining tor funksiyasini bajaradi, natijada umumiy sxema ishlab chiqarish, tayyorlash, reklama qilish, sotish, yetkazish, hisob-kitob, nazorat kabi bosqichlarga bo‘linib ketadi. Ushbu tuzilma jinoiy faoliyatni yashirish, xavfni kamaytirish va tez moslashish imkonini beradi.

L.S. Kuzinaning ilmiy qarashlariga ko‘ra, internetning anonim segmentlari, messenjerlar va hatto o‘yin platformalari orqali iyerarxik tuzilmalar shakllanib, o‘smirlar ko‘pincha quyi bo‘g‘inlarda “zakladchi”, “trafaretchi” yoki chat “menejeri” kabi rollarda ishtirok etadi, ular esa “botlar” yoki anonim kuratorlar bilan cheklangan aloqaga ega bo‘ladi [7]. Demak, raqamli muhit jinoiy guruhlarga boshqaruvni oson joriy qilish imkonini bermoqda, yuqori bo‘g‘in o‘zini maksimal darajada ajratadi, quyi bo‘g‘in esa vazifani bajaradi, lekin butun zanjirni bilmaydi.

A.A. Chechenov ta’kidlaganidek, internet orqali narkotik moddalar savdosida kontaktsiz o‘zaro ta’sir, elektron aloqa va hisob-kitob vositalari bilan birga, “personalni tanlash” ham tarmoq orqali amalga oshiriladi, savdo oldidan tayyorgarlik (joylash, qadoqlash, “zakladka” tayyorlash) uchun alohida shaxslar jalb etiladi va ular amalda bir-birini to‘liq tanimasligi mumkin[8]. Jinoiy sxemaning asosiy belgisi raqamli savdoda ish jarayoni “modul”larga bo‘linadi. Fikrimizcha, aynan modullashtirish jinoiy tuzilmani bozor mexanizmiga yaqinlashtiradi, vazifalarni tez almashtirish, yangi ijrochini tez topish, bir bo‘g‘in yo‘qolsa ham zanjirni saqlab qolish mumkin bo‘ladi.

M.A. Mentyukova va O.S. Pustovalova internetda narkotiklarning noqonuniy tarqalishi muammosi kuchayib borayotgani, bunda “usul va metodlar” takomillashayotgani haqida fikr yuritib, darknet kabi muhitlarning tilga olinishini ham qayd etadilar[9]. Mualliflar urg‘u berayotgan “takomillashuv” amalda ishtirokchilar tizimining ham takomillashuvini anglatadi. Ya’ni raqamli savdoda ishtirokchilar faqat sotuvchi-xaridor darajasida emas, balki tashkilotchi, kurator, kontent, aloqa boshqaruvchisi, ijrochi, moliyaviy operator kabi ixtisoslashgan funksiyalarga ajralib ketadi. Bu ixtisoslashuv natijasida jinoiy sxema barqarorlashadi, chunki har kim o‘z vazifasini “kasbiy” darajada bajarishga moslashadi.

L.S. Kuzina keltirgan tavsiflardan ko‘rinib turibdiki, raqamli savdoda aloqa kanali bilan ishlaydigan alohida rol paydo bo‘lgan, chat, kanallarni yuritish, xabarlarni standartlashtirish, “mijoz” bilan muloqot qilish, shikoyat ko‘rib chiqish. Bu vazifa savdo jarayonida vositachilikni kuchaytiradi, bir tomonda tashkilotchi va kurator, ikkinchi tomonda xaridor, ular o‘rtasida esa menejer yoki bot orqali muloqot ketadi [10]. Fikrimizcha, bunday vositachilik savdoni tezlashtirsa-da, jinoiy zanjirning psixologik to‘siqlarini ham pasaytiradi: ijrochi o‘z harakatini “texnikaviy topshiriq” sifatida qabul qilib, umumiy oqibatni kamroq his qiladi.

A.M. Chechenov qayd etgan tayyorgarlik, qadoqlash, zakladka kabi vazifalarning ajratilishi sxemaning yana bir muhim jihatini ko‘rsatadi, logistika qismi ham “parda ortidagi” mayda ishlarga

bo‘linadi. Bu yerda ayrim ishtirokchilar joy tanlash, masofadan ko‘rsatma olish, belgilangan standart bo‘yicha joylashtirish bilan shug‘ullanadi. Fikrimizcha, standartlashtirish (bir xil qoidalar, bir xil tartib, bir xil hisobot shakli) jinoiy guruhlarning boshqaruvini yengillashtiradi va yangi ijrochini tez “o‘qitish” imkonini beradi.

Shu tarzda, raqamli muhitda narkotik moddalar savdosi ishtirokchilar tizimi vazifalarni maydalash, iyerarxiyani yashirish va aloqani cheklashga tayanadi. Natijada jinoiy sxema “qisqa muddatli foyda” uchun emas, balki uzluksiz ishlaydigan, o‘ziga xos tashkilotchilik belgilarini namoyon qiladigan tarmoqqa aylanadi; ishtirokchilar esa umumiy zanjirni emas, faqat o‘z bo‘g‘inini bilishi bilan ajralib turadi.

Internet orqali narkotik moddalar noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda eng katta qiyinchiliklardan biri – raqamli dalillarning tez yo‘qolib ketishi va ularni protsessual jihatdan to‘g‘ri mustahkamlab olish masalasidir. A.A. Chechenov ta’kidlaganidek, bunday ishlar bo‘yicha asosiy muammolar elektron aloqa va hisob-kitob vositalariga bog‘lanib qoladi, kontaktsiz o‘zaro ta’sir esa shaxsiy muloqotni deyarli yo‘qqa chiqaradi va ko‘p hollarda “texnik komponentlar”gina ish bo‘yicha kalit iz bo‘lib qoladi [11]. Agar tergovchi voqea sodir bo‘lgan paytdagi qurilma izlari, akkaunt faolligi, loglar va to‘lov tranzaksiyalarini kechiktirmay hujjatlashtirmasa, keyinchalik isbotlash imkoniyati keskin pasayadi.

Ikkinchi dolzarb muammo – shaxsni identifikatsiya qilish va ayni bir akkaunt-qurilma orqasida kim turganini aniq belgilashdagi qiyinchilik. Elektron muhitda bir shaxs bir necha akkaunt ishlatishi, qurilmani almashtirishi yoki boshqa shaxslarga vaqtincha berishi mumkin. Bu sharoitda aybni faqat “akkaunt unga tegishli” degan taxminga qurish xavfli, ishonchli isbot uchun texnik-ma’lumotlar zanjiri (IP-ma’lumotlar, qurilma identifikatorlari, geolokatsiya tarixlari, sessiyalar vaqti, to‘lov izlari) o‘zaro mos va uzluksiz ko‘rsatilishi kerak. Shuning uchun tergov taktikasida “kim yozgan-kim boshqargan” savoliga javob beradigan kompleks raqamli ekspertizalarni majburiy standart sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq.

Uchinchi muammo – elektron dalillarning maqbulligi va haqqoniyligini ta’minlash. Skrinshot, chat ko‘chirmasi yoki “ko‘zdan kechirish bayonnomasi” bilan cheklanish ko‘p hollarda yetarli emas, metama’lumotlar yo‘qolishi, tahrirlangan fayl xavfi, dalilning kelib chiqish manbai aniqlanmasligi mumkin. A.A. Chechenov texnik komponentlar bo‘yicha tekshiruv va xatti-harakatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish zarurligini urg‘ulaydi. Bu yerda amaliyot uchun yechim aniq, elektron ma’lumotni “forenzik nusxa” asosida olish, xesh-summalar bilan yaxlitlikni tasdiqlash, saqlash zanjirini hujjatlashtirish va har bir kirish-chiqish harakatini rasmiylashtirish kerak.

To‘rtinchi dolzarb muammo – idoralararo va xalqaro hamkorlik sifati. Platforma, xosting, to‘lov provayderi yoki server boshqa davlat

yurisdiksiyasida bo‘lsa, so‘rovlar kechikishi dalil yo‘qolishiga olib keladi. Shu sababli tezkor choralar bilan protsessual harakatlar o‘rtasidagi muvofiqlik muhim, tergovchi va operativ bo‘linmalar bir vaqtning o‘zida axborotni saqlab qolish va keyin rasmiy talab qilish mexanizmlarini ishga tushirishi lozim.

Beshinchi muammo – kadrlar va metodik ta’minlash. Raqamli izlarni tushunadigan tergovchi va mutaxassislar yetishmasligi, amaliyotda “qanday hujjatlashtirish” bo‘yicha yagona yo‘riqnomalarning turlicha talqin qilinishi ish sifatiga ta’sir qiladi. Bu holatni bartaraf etish uchun raqamli kriminalistika bo‘yicha maxsus tayyorgarlik, tipik tergov versiyalari va standart tergov harakatlari algoritmlarini joriy qilish zarur. Aks holda ish materiallari sudda bahsli bo‘lib qolishi ehtimoli yuqori.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar rivojlanishi narkotik moddalar noqonuniy aylanmasining shakllanishi va amalga oshirilish xususiyatlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Internet muhiti jinoiy faoliyatning yangi usullari, tashkiliy modellari va aloqa shakllarini yuzaga keltirib, mazkur jinoyat turining yanada murakkablashishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitda amalga oshirilayotgan bunday faoliyatni aniqlash va tergov qilish jarayoni ham qator muammolar bilan bog‘liq ekani namoyon bo‘ladi. Mazkur holat internet orqali sodir etilayotgan jinoyatlarni tahlil qilish, ularning xususiyatlarini ilmiy o‘rganish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ментюкова Мария Алексеевна, Пустовалова Оксана Сергеевна. Криминологические аспекты незаконного распространения наркотиков в сети интернет // Актуальные проблемы государства и права. 2022. №23.

2. Кузина Любовь Сергеевна. Цифровая трансформация преступлений, связанных с вовлечением несовершеннолетних в незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ или их аналогов // Вестник ВИ МВД России. 2025. №4.

3. Чеченов Алим Аминович. Проблемные аспекты расследования преступлений, связанных со сбытом наркотических средств посредством сети Интернет // Пробелы в российском законодательстве. 2023. №4.

4. Ментюкова Мария Алексеевна, Пустовалова Оксана Сергеевна. Криминологические аспекты незаконного распространения наркотиков в сети интернет // Актуальные проблемы государства и права. 2022. №23.

5. Кузина Любовь Сергеевна. Цифровая трансформация преступлений, связанных с вовлечением несовершеннолетних в незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ или их аналогов // Вестник ВИ МВД России. 2025. №4.

6. Чеченов Алим Аминович. Проблемные аспекты расследования преступлений, связанных со сбытом наркотических средств посредством сети Интернет // Пробелы

в российском законодательстве. 2023. №4.

7. Кузина Любовь Сергеевна. Цифровая трансформация преступлений, связанных с вовлечением несовершеннолетних в незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ или их аналогов // Вестник ВИ МВД России. 2025. №4.

8. Чеченов Алим Аминович. Проблемные аспекты расследования преступлений, связанных со сбытом наркотических средств посредством сети Интернет // Пробелы в российском законодательстве. 2023. №4.

9. Ментюкова Мария Алексеевна, Пустовалова Оксана Сергеевна. Криминологические аспекты незаконного распространения наркотиков в сети интернет // Актуальные проблемы государства и права. 2022. №23.

10. Кузина Любовь Сергеевна. Цифровая трансформация преступлений, связанных с вовлечением несовершеннолетних в незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ или их аналогов // Вестник ВИ МВД России. 2025. №4.

11.Чеченов Алим Аминович. Проблемные аспекты расследования преступлений, связанных со сбытом наркотических средств посредством сети Интернет // Пробелы в российском законодательстве. 2023. №4.